

AKADEMIK LITSEYLARDA HUQUQ FANLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI

Eshov Namoz Sanoqulovich

O'zR IIV ning

1-sonli Toshkent akademik litseyi

yetakchi o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquq fani haqida shuningdek huquq fanini o'qitishning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Davlat, huquq, qonun, hokimiyat, masala, metodika, demokratiya, ijtimoiy huquq, tartib-intizom.

O'zbekiston Respublikasining Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida gi Qonunida yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, serig'ayrat, izlanuvchan, ta'lif sohasidagi islohotlarni qo'llab quvvatlovchi, o'z pozitsiyasiga ega shaxs sifatida tarbiyalash O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'naliishi sifatida e'tirof etilgan. Yoshlarning ta'lif olishi, kasb hunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or innovatsion shart sharoitlarni yaratish, ta'limga yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun davlatimiz barcha imkoniyatlarni ishga solmoqda. Chunki barkamol avlod baxtli kelajak garovidir. Davlatimiz rahbari Bizga miqdor emas, sifat kerak. Bunga erishish uchun esa xorij tajribasini yaxshilab o'rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratsa, o'sha yutadi. Ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish eng muhim vazifamizdir , - deb alohida takidlar ekanlar, ,u borada pedagoglarga yuklatilayotgan mas'uliyatga urg'u berib o'tdilar. O'qituvchi jamiyatni harakatlantiruvchi kuch bo'lishi bilan birga yangi ishlab chiqarish texnologiyalarni o'zlashtirgan, ularni xayotga tadbiq qila oladigan , yoshlar ongiga jamiyatning xil xayotida ilg'or bo'lgan barcha malumotlarni yetkaza oladigan qobiliyatga ega bo'lishi lozim. Bir so'z bilan aytganda, bugungi kun o'qituvchisi o'qitishning eng samarali uslublarini yaxshi o'zlashtirgan, eng muhimi ularni o'qitishda izchil qo'llay olishga tayyor bo'lishi lozim. Barcha sohalarda talimga qo'yilayotgan bu talablar, hech shubhasiz yuridik ta'lifni ham chetlab o'tmayapti albatta.Yuridik ta'linda ham pedagogning kasbiy tayyorgarligi ta'lif sifati, o'qitish metodikasining takomillashuvi, rivojining muhim omilidir. ¹

¹ . Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomndagi TDPU, 2009.

Hozirgi kunda biz ta'lim sifatining kafolatlovchi asosi pedagogik texnologiyalardir deb ta'kidlanayotgan bir davrda, fikrimcha, ta'limda ko'zlangan samarali natijadorlik zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'limga kirituvchi o'qituvchining boshqaruvchanlik mahoratiga bog'liq. Shuning uchun, har qanday ta'lim – tarbiya sifati, unda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalarning samarasini ta'lim tizimining asosiy boshqaruvchisi bo'lgan pedagogning tayyorgarlik darajasiga, kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shunday ekan, hozirgi zamon pedagogi o'z mahoratini uzluksiz oshira borishi, bugungi kunning yuksak talablariga mos zamonaviy bilim va tajribalarni o'zlashtirishi, ijodiy mehnat qilishga intilishi lozim. Yurtboshimiz takidlaganidek, Bir o'ylab ko'raylik, dunyodagi rivojlangan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda? Eng avvalo, ilm fan va ta'limga qaratilgan ulkan etibor tufayli emasmi? Shuning uchun ham keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda.

Insoniyat qadim zamonlardan buyon davlat va huquq masalalariga katta qiziqish bilan munosabatda bo'lib keladi. Davlat hokimiyyati hamda huquqiy hayot hodisalari hamma zamonlarda alohida dolzarblik kasb etib kelganligi barchaga ayon. Bu voqeliklar mustaqil O'zbekiston Respublikasi uchun ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Biz yaqin o'tmishimizda sinfi hukmronlikning quroli sifatida davlat haqidagi markscha g'oyani shior qilib olib, bu nazariyani dogmaga, davlat va huquqni esa sinfiy kurash, sinfiy raqiblarni yengish vositasiga aylantirgan edik. Mustaqillik tafakkurining mahsuli sifatida bu borada ham yangicha nazariy qarashlar qaror topdi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov talqinida davlat va huquq yangicha tavsifga ega bo'ldi. «Demokratiya sharoitida, — deb ta'kidlaydi yurtboshimiz, davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda, murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi. Huquqning o'ziga esa ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi sifatida yondashiladi»

Huquq fanni o'qitish sifatini belgilashda metodika fani katta o'rin egallaydi. Metodika bilan qurollangan har bir o'qituvchi togri, ijodiy va samarali ishslash imkoniyatiga ega bo'ladi. Huquq fani o'qituvchisi zimmasiga yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol kishi qilib tarbiyalash singari katta va masuliyatli vazifalarni yuklaydi. Huquqni o'qitish va tarbiyalash metodikasi o'quvchilarga nimani o'qitish va qanday orgatish degan savolga javob berib: birinchidan, o'qituvchilarga fan asoslarini singdiradi; ikkinchidan, ularni o'rgatish metodlarini aniqlab beradi. Fan asoslari, huquq bo'yicha bilimning hajmi esa huquqshunoslik fani dasturida belgilab qo'yilgan. Huquq fani o'qitish metodikasining o'ziga xos bir qancha xususiyatlari mavjud:

dars obyektlari har xil bo‘lib, mashgulotlarning mazmuni bir biridan tubdan farq qiladi;

darsning mazmuni, mohiyati, yo‘nalishlarini belgilashda o‘qituvchining sifatlari, bilim darajasi, mahorati va hokozolar muhim o‘rin egallaydi;

o‘quvchilarning bilim natijasi har xilligi inobatga olinadi;

darslarda berilgan bilimlar hayotiy hamda amaldagi tartib qoidalar va me’yoriy normalar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi;

huquq fani asoslari doimiy ravishda yangilanayotganligi hisobga olinadi va h.k. O‘qitishning dialektik qonuniyatiga amal qiluvchi huquq o‘qituvchisi, metodika fanini ham turlicha uslub va tamoyillarga ega ekanligini bilib olishi shart:

Birinchidan, har bir mavzuni turlicha usullar bilan o‘tish qonuniydir.

Ikkinchidan, har bir mashg‘ulot turli tuman huquq manbalari asosida tashkil etiladi.

Uchinchidan, huquq mashg‘ulotida asosan me’yoriy normalar o‘rgatiladi.

To‘rtinchidan, darslarda hukumat tomonidan olib borilayotgan siyosatning huquqiy asoslari o‘rgatib boriladi.

Beshinchidan, yoshlarga intizom va tartib qoidalar muntazam ravishda o‘rgatib boriladi. Bular pedagogik qonuniyatlar bo‘lib, ularni huquq o‘qitish metodikasi fanida ham qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Fan asoslarini o‘qitish va metodikani bir-biridan farq qilmoq kerak. Metodika talabalarga nazariy bilim bilim bilan birgalikda undan foydalanish yo‘llarini ham ko‘rsatadi. Nazariya fanning asoslarini, uning maqsad, fazifikasi, dolzarbligini o‘rgatadi. Huquq fanidan ko‘pgina dars o‘tish nazariyasini amalda qo‘llash yol‘larini metodika o‘rgatadi. Nazariya amaliyotga ishonch bahsh etadi. Nazariyasiz amaliyot qanotsiz qush, shuning uchun ham har bir o‘qituvchi metodikani albatta bilishi shart. Metodika hayotda qo‘llash mahoratini keltirib chiqaradi.

Metodikani bilmagan o‘qituvchi;

birinchidan, ko‘r-korona ish olib boradi;

ikkinchidan, mehnat natijalariga erisha olmaydi;

uchinchidan, o‘qituvchilik faoliyatida hatto kamchiliklarga yol’ qo‘yadi. Bugungi o‘zbek jamiyati o‘zi uchun huquqiy davlat, inson huquqlari va shaxs erkinligi, demokratik fuqarolik jamiyati, siyosiy hurfikrlilik (plyurnalizm), hokimiyyatlar taqsimlanishi, qonun ustuvorligi, mustaqil sud hokimiyyati kabi fundamental tushunchalarni qayta kashf etmoqda. Tan olish lozimki, jamiyat ijtimoiy siyosiy va ma’naviy hayotini zamonaviy marifiy tamoyillar asosida isloh etishda davlat va huquq benihoya katta rol o‘ynaydi. Shu bois davlat tuzilishi, demokratik siyosiy tuzilishning mavjud bo‘lishi, huquqiy munosabatlar oqilona tizimining tashkil etilishi ko‘p jihatdan mamlakatimizdagi davlat-huquqiy institatlarning faoliyatiga bog‘liqdir. Mustaqillik yillari mobaynida yurtimizda demokratik huquqiy davlat va bozor iqtisodiyotini qaror

toptirish yo‘lida huquqiy jihatdan ko‘pgina ishlar qilindi. Respublikada davlat idoralarining, shu jumladan, huquqiy muassasalarning izchil tizimi shakllantirilmoqda. Demokratik institutlarni hayotimizga olib kiruvchi va bozor munosabatlarini ma’rifiy shaklda joriy etishga imkon beruvchi qonunlar majmui yaratilmoqda. Hozirgi vaqtida yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi, demokratik siyosiy tizim tarkibiy tuzilmalarini ham fuqarolik jamiyatni bo‘g’inlarini vujudga keltiruvchi, inson huquqlari kafolatlari tizimini qaror toptiruvchi, bir so’z bilan aytganda, butun ijtimoiy-siyosiy hayotimizning huquqiy negizini barpo etadigan 300 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilindi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganligi o‘tgan mustaqil rivojlanish davrimizdagi qonun chiqarish faoliyatining gultoji bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 9 yanvarda “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning chora tadbirlari” to‘g’risidagi qaroriga ko‘ra, bugungi kunda ta’lim tizimida huquq fanini tegishli darajada tashkil qilinishi, ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda, mashgulotlar zamonaviy ta’lim texnologiyalariga tayangan holda, o’t kazilishi lozimligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’milanishi zarurligidan kelib chiqib, huquq fanlarini maqsadli, samarali va kafolatlangan natijali o‘qitish davr talabidir.²

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari va Konstitutsiyaviy huquq darslarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlanirish quyidagi uch jihatdan muhimdir:

1. O‘quvchining hayotda o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lishiga zamin yaratadi.
2. O‘quvchi egallagan bilimi orqali shkllangan salohiyati va dunyoqarishi bilan to‘g‘ri yo‘lni tanlashga yo‘naltiradi.
3. O‘quvchida shakllangan huquqiy-siyosiy madaniyat o‘z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishiga ko‘maklashadi.

Shu nuqtai-nazardan o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlanirish har bir darsning maqsadi bo‘lmog‘i lozim. O‘quvchilarga huquqshunoslik darslarining o‘tilishida bilish faoliyati orqali mustaqil fikrlash qobiliyatini faollashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogic texnologiyalar ohgli intizomning yuqori darajada bo‘lishini va ongli fikrlashning ortib borishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Huquqshunoslik, yurisprudensiya – huquqiy ijtimoiy normalarning alohida tizimi sifatida, huquqning alohida tarmoqlarini, davlat va huquq tarixini, davlat va umuman siyosiy tizimning faoliyatini o‘rganuvchi fan. Huquqshunoslik – eng qadimgi ijtimoiy fanlardan biri. Uning tarixan vujudga kelishi huquqning paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Yunon falsafasidayoq huquqshunoslikning eng muhim nazariy muammolari o‘rtaga tashlangan, rim huquqshunoslari esa huquqiy tushuncha va

² Tuvchieva H. Huquqshunoslik (O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilari uehun metodik qo‘llanma). - T., TDPU. 2012.

tuzilmalarni ishlab chiqqan edilar, bu tushuncha va tuzilmalar hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Huquq muammolari hozirgi demokratik jamiyatda va huquqiy davlataa g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi, huquqshunoslik tuzilish jihatdan bir qancha tarmoklarga bo‘lingan: davlat huquqi, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, xalqaro huquq, davlat va huquq tarixi, siyosiy bilimlar tarixi. davlat va huquq mohiyatini, huquqshunoslikning boshqa umumiy masalalarini o‘rganuvchi umumiy davlat va huquq nazariyasi fani alohida o‘rinda turadi.

Huquqshunoslik umumiy nazariy fangina bo‘lib qolmay, shu bilan birga amaliy fan ham hisoblanadi. Sud tibbiyoti, sud psixiatriyasi, kriminalistika, kriminologiya va boshqa yurisprudensianing amaliy turi hisoblanadi.

Huquqshunoslik fani inson dunyoqarashi, uning huquq va davlat to‘g‘risidagi tasavvuri, tushuncha va bilimlari shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Huquqshunoslikning g‘oyaviy ta’siri insonning huquqiy madaniyati rivojlanishiga, huquq talablarini qadrlab, unga rioya etishiga yordam qiladi. Bu bilan jamiyatda huquqiy axloq va huquq-tartibot qaror topishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lif samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomndagi TDPU, 2009.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Qarshi: Nasaf, 2000.
3. Tuvchieva H. Huquqshunoslik (O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o‘qituvchilari uehun metodik qo‘l!anma). - T., TDPU. 2012.
4. G‘anieva M. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami. - T., 1 DIU. Iqtisodiyot. 2013
5. G‘anieva M. Kiehik guruhlarda hamkorlikda ishlash pedagogik texnologiyalar to'plami-T.. TDIU, Iqtisodiyot. 2013
6. Зиямухамелова С. Зиямухемедов Б. Новая педагогическая технология. - Т.:
7. Abu AM ibn Sino. 2002.